

MASOFADAN TURIB ZONDASH MA'LUMOTLARI ASOSIDA KADASTR KARTALARINI YARATISH

M.M.Jalolova

Annotatsiya: *Mazkur maqolada asosiy e'tibor kadastr kartalarini yaratishda masofadan turib zondash ma'lumotlaridan foydalanish masalalari yoritilgan. Bu mavzuning murakkabligi shundaki axborotni zamoniviy darajada ushlab turish uchun uni yangilab boorish zarurligidadir.*

Kalit so'zlar: *Masofadan zondash ma'lumotlari, kadastr kartalari kartalarni loyihalash va tuzish, zamonaviy GIS texnologiyalari.*

Hozirgi paytda kadastr kartalarini zamonaviy GIS texnologiyalari asosida yaratish va ulardan foydalanish masalalariga katta e'tobor qaratilmoqda. Davlat yer kadastrini yuritish uchun ma'lumotlar bazasini yaratishdan asosiy maqsad ma'lum bir yerdan foydalanuvchi shuningdek yer uchastkalarida joylashgan alohida obyektlar bo'yicha ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash, tahlil qilish hamda o'zgaga berilishini ta'minlovchi dasturiy majmuani tayyorlashdan iboratdir.

Kadastr ma'lumotlarini yuritishda masofadan zondash materiallarining ahamiyati shundaki, ko'chmas mulklarga bo'lgan huquqlarni ro'yhatga olish jarayonida obyekt to'g'risida to'liq ma'lumotlar shakllanishi bilan birlashtiriladi. Davlat yer kadastrini yuritish uchun ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash, tahlil qilish hamda o'zgaga berilishini ta'minlovchi dasturiy majmuani tayyorlashdan iboratdir.

Kadastr kartalarini yaratishda masofadan zondashning ahamiyati katta va bu karta yaratish ishini bir qancha osonlashtiradi.

Masofadan zondash - bu berilgan ob'ektlar bilan bevosita fizik tegish holatida bo'limgan tarzda, ob'ekt yoki hodisalar haqida axborotlarni olish uslubi hisoblanadi.

Bu atama zamonaviy nuqtai nazaridan, asosan er yuzasida joylashgan ob'ektlarni qayd qilish, klassifikatsiyalash va tahlil qilish maqsadida joyni masofadan turib, havodan yoki kosmik fazodan zondash texnologiyalariga tegishli hisoblanadi,

Masofadan zondashda nofaol tavsifga ega bo'lgan sezgir moslamalar (sensorlar) ob'ekt yoki tutash hududlardan tarqaluvchi yoki ular orqali qaytuvchi signallarni qayd qiladi

Yerni masofadan turib zondash bu yer yuzasini turli xildagi tasvirga olish apparatlari bilan jihozlangan aviatsiya va kosmik qurilmalar vositalarida kuzatish jarayoni hisoblanadi. Yerni masofadan zondash materiallari geoaxborotlar tizimlari uchun asosiy ma'lumotlar manbalaridan biri hisoblanadi. Bunda ushbu materiallar eng avvalo, aerofoto-tasvirlar va kosmik tasvirlardan tashkil topadi.

Masofadan zondash:

-samolyot yoki boshqa vositalardan olingan rasmlar GIS uchun asosiy geografik ma'lumotlar manbai bo'lib hisoblanadi.


-masofadan turib olingan zondash materiallari deshifrovka qilingach, GIS ning boshqa turdag'i ma'lumotlari qatlamlari bilan osongina birlashtirilishi mumkin.

-ko`plab GIS lar rasmlarda taxlil ishlarini olib boradigan o`ta murakkab analitik funktsiyalariga ega.



1-rasm. Aerofoto tasvir

Masofadan turib zondlash ishlari kosmik apparatlar suniy yo`ldoshlar va GPS qurilmalari samaleot va boshqalar orqali amalga oshiriladi.



2-rasm. Suniy yo`ldoshlar bo'yicha olingan tasvirlar

GPS - bu joylashish joyini aniqlashga mo'ljallangan global tizim bo'lib, GPS-navigator bilan koordinatalarni aniqlash tamoyilining asosini er yuzasida joylashgan nuqtagacha bo'lgan oraliq masofalarni o'lchash yo'li bilan nisbiy joylashish joyni aniqlash tashkil qiladi (bunda geodezik tarmoqlarning har bir punkti bevosita, bir nechta boshqa punktlardan kuzatilishi amalga oshirilishi mumkin). Hozirgi vaqtida er yuzasida nuqtalarning o'zaro bir-biriga nisbatan joylashish holatini aniqlash uchun, oraliq nuqta sifatida arning su'niy yo`ldoshlaridan foydalaniladi, bunda erda joylashgan punktdan su'niy yo`ldoshgacha bo'lgan oraliq masofa o'lchanadi



3-rasm. GPS qabul qilish qurilmalarining turlari

Kadastr kartografiyasi – bu rayon yoki aholi punktini kadastr karalarini tuzish bo'yicha bajariladigan kompleks tadbirdir.

Kadastr kartalari va yozma inventarizatsion materiallar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik yer uchastkalari identifikatorlari vositasida amalga oshadi. Inventarizatsiya va kadastr kartografiyasi bo'yicha ish bajarilayotganda bunday identifikatorlar sifatida yer uchastkalarining identifikatsion raqamlari, davlat kadastri ma'lumotlar bazasiga yangi ma'lumotlar kiritilayotganda esa kadastr raqamlari ishlatiladi.

Kadastr kartalarini yaratishda GAT texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Zamoniaviy GAT – bu ko'p miqdordagi grafik va mavzuli ma'lumotlar bazasiga ega bo'lgan, baza asosida ish bajarish imkoniyatiga ega modelli va hisobli funktsiyalar bilan birlashgan, fazoviy ma'lumotlarni kartografik shaklga aylantirish, turli qarorlarni qabul qilish va monitoring ishlarini amalga oshiradigan avtomatlashgan tizim, deb qaraladi.

Bugungi kunda foydalanishi jihatidan GATga teng keladigan tizim yo'q, chunki uni bilimlarning barcha sohasida qo'llash mumkin. GAT fazoviy obyekt haqida raqamli ko'rinishli (rastr, vektor va h.k.) ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, mavjud obyektlarning raqamli tasviri, joyning raqamli modelidir.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Safarov E.Yu., Musaev I.M., Abduraximov X.A. Geografik axborot tizimlari va texnologiyalari. – Toshkent., TIMI, 2009.
- 2.E.Safarov, I.Musaev. Geoaxborot tizim va texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2012.
- 3.M.Mirzaliev, M.Musaev. Kartografiya. Toshkent.-“ILM-ZIYO”, 2007-160b
- 4.Mirzaliev T., Musaev I.M, Safarov E.Yu. Ijtimoiy-iqtisodiy kartografiya. Toshkent, Yangi asr avlod, 2009 y..-160 b.